



SPORT TIZIMINING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI

G'AYBULLAYEV SARVAR O'KTAM O'G'LI

O'zMUJF, o'qituvchi

NORQO'ZIYEV DAVLATBEK BOBUR O'G'LI

O'zMUJF, talaba

E-mail: dilshodbekshodlikov@gmail.com

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-5-pp284-286>

Annotatsiya: Ushbu ishda O'zbekiston Respublikasida jismoniy madaniyat tizimining jamiyatda tutgan o'rni, maqsad va vazifalari, yo'nalishlari, rivojlanish tarixi, sobiq ittifoq davrida va mustaqillik yillarida jismoniy madaniyat tizimini rivojlanish xususiyatlari, mustaqillik yillarida jismoniy madaniyat tizimida olib borilgan islohatlar va ularning ijobiy samarasi keng ochib berilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy madaniyat, tizim, umumiy tushincha, qonun, farmon, mustaqillik, rivojlanish.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Chunki jismoniy madaniyat va sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptiradi. Jismoniy tarbiya va sportga davlat siyosati miqyosida e'tibor qaratilishi, ayniqsa O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2015-yil 12-iyundagi – Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-4732-son Farmonidagi ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi va shu farmonlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'yicha hukumat tomonidan qabul qilingan qaror bolalar sportiga ham tamomila yangicha yondashish, ilmiy asoslangan texnologiyalar asosida iste'dodli yoshlarni tarbiyalashda sport zahiralarini tayyorlash maktablarini yaratish masalalarini o'rta tashlamoqda. Yosh avlodni har tomonlama, aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan rivojlanishida jismoniy tarbiya asosiy o'rinlardan birini egallaydi. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sportchilarning yangi avlodini tayyorlash va tarbiyalash, Vatanimiz sportining xalqaro nufuzini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi va shaxsan respublikamiz Prezidenti SH.M.Mirziyoev tomonidan katta e'tibor qaratilishi, tegishli qaror, farmon va qonunlarni ishlab chiqilayotganligi va

hayotga tatbiq etilayotganligi jismoniy madaniyat O'zbekiston tizimini taraqqiy etishiga zamin bo'lmoqda.

–Ommaviy sport tadbirlarini yanada kuchaytirish to'g'risidagi qarorlar va shu sohaga oid boshqa kontseptual hujjatlarning qabul qilinishi, ularning bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilayotganligi hamda O'zbekiston Konstitutsiyasi – Ta'lim to'g'risidagi Qonun, –Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida jismoniy tarbiya va sportga alohida urg'u berilishi yuqorida qayd etilgan fikrimizning ifodasidir. So'nggi yillarda o'zbek sporti o'zining yuksak natijalari bilan mamlakatimiz shuhratini jahon hamjamiyati oldida tarannum etib kelayotganligi, minglab xalqaro standartlarga mos sport majmualari qad ko'tarilayotganligi, yurtimizning turli hududlarida eng nufuzli xalqaro musobaqalarning o'tkazib kelinayotganligi ushbu hujjatlarning amaliy natijasidir. Lekin yuksak natijalarni qo'ldan bermaslik, malakali, raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash, to'g'ridan-to'g'ri yosh iste'dodli zaxiralarni yetishtirish bilan bog'liqdir. Mustaqillik tufayli jismoniy tarbiya va sport yurtimiz taraqqiyotining barcha sohaları kabi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari doirasida rivoj topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev 2017-yil, 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma'naviy sog'lomlikning asosi ekanini targ'ib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalarni belgilab bergan edi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin: Jismoniy madaniyat O'zbekiston tizimi insonlarni nafaqat jismoniy, balki ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashga, yoshlarni ijtimoiy mehnatga va Vatan himoyasiga tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

17.Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.

18.Хакимов О. М., Курбанов З. Х., Мухаммедов Ф. Реализация возможностей получения легких наполнителей на основе меньше пластиковых почв в нашей республике //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 176-181.

19.Мухтаров Б. А., Ортиков Ё. Ю. Культурное и экономическое развитие туризма в Узбекистане //Молодой ученый. – 2016. – №. 14. – С. 375-378.

20.Rashidov U., Rashidov A. Assessment of Costs For the Quality of Logistics Activities //INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 39-43.

21.Ҳосилмуродов И., Султоналиева Г. Тафаккур услубининг фалсафий-методологик таҳлили //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 549-551.

22.Nodira T. INNOVATIVE MANAGEMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 346-351.

23.Ali o'g'li A. O. STATISTICAL STUDY OF DIRECT MAINTENANCE OF SMALL BUSINESS ACTIVITIES IN THE REGIONS //EPRA International Journal of Economic and Business Review (JEER). – 2022. – T. 10. – №. 6. – C. 30-33.

24.Норбеков, Х., & Туйчиева, Н. (2022). Формирование конкурентных преимуществ компании. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 589-592. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5351>

25.Nasirov B. U., Boltaeva M. J. Genesis And Transformation Of The Public Catering System In Uzbekistan During The Soviet Period //Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume. – T. 12. – C. 5834-5841.

26.Uchkun S., Dilshod N. PROCESS OF IDENTIFYING THE SIGNIFICANT ACCOUNTS IN THE REVENUE CYCLE //Journal of marketing, business and management. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 32-36.

27.Nodira T., Rashid X. PROBLEMS OF INNOVATION MANAGEMENT IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 155-164.

28.Abdusattarovich M. B. CALCULATING ECONOMIC EFFICIENCY IN THE DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 1189-1194.

29.Khakimov O. SOCIAL GOALS OF STUDENTS IN HIGHER EDUCATION // International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 55-59.

30.Nosirovich A. N. The Methodology of Preparation of Students of Vocational Schools and Colleges for Technical Creative Activity //PSYCHOLOGY AND EDUCATION. – 2021. – T. 58. – №. 2. – C. 1470-1485.

31.Alimov N., Gulrukh F. Dependence of psychological maturity on the strength of family relationships //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – T. 6. – C. 38-41.

32.Burkhanovna, K. D., Alisherovich, M. R., & Ugli, N. B. U. (2021). Communication as the main source of personality development. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 75-80.

33.Nosirovich, A. N., & Umarovich, N. B. (2022). CYBERSPACE IN THE REAL WORLD. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(10), 410-414.

34.O'zbekiston Respublikasining –Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi Qonuni. Toshkent, 5 sentabr 2015 yil. 174 – son Xalq so'zi gazetasi.